

O.Gayibnazarov

*dotsent O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi HTM PK MOM
boshlig‘I, Polkovnik*

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonini tashkil etish talablari va bu javrayonda pedagogning o‘rni borasida mulohaza yuritilgan. Pedagog shaxsiga qo‘yilgan talab, zamonaviy pedagog qanday bo‘lishi, pedagogik faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim, ta’lim jarayoni, ta’lim talablari, pedagog shaxsi, zamonaviy pedagog, pedagogik faoliyat.

Bugungi kunda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o‘qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Yangi pedagogik texnologiyalarni xislati shundaki, unda qo‘yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o‘quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg‘ulotlarning muvaffaqiyatli o‘tishining 80 foizi ta’lim jarayonini to‘g‘ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog‘liqdir. Prezidentimiz “Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta’minlashni nazorat ostiga olish zarur”ligini alohida ta’kidlab kelmoqdalar[1]. Bugun olimlar va o‘qituvchilar ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga astoydil kirishishlari shart va ular bu ishga mas’uldirlar.

O‘quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta’lim mazmunini, ta’lim maqsadi, kutilayotgan natijani aniq belgilash, ta’lim metodlari, shakllari va vositalarini to‘g‘ri tanlash, o‘quvchi va talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashni real mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg‘ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni samarali amalga oshirish va bir-biri bilan uyg‘unlashuviga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Kelajakda ta’lim taraqqiyotining haqqoniy harakatlantiruvchi kuch sifatida o‘qituvchi faoliyatini yangilashga, ta’lim-tarbiya jarayonini maqbul (optimal) qurishga, talaba yoshlarda hur fikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Eng avvalo, ta’limda biror bir o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun avval o‘qituvchining *kasbiy ongini* tubdan o‘zgartirish kerak. Pedagoglarimiz darslarni yangi takomillashgan standart asosida tashkil etish uchun, avvalo, o‘z fani yangiliklari bilan doimiy tanishib borishlari va bu bilimlarni ta’lim va tarbiyaga moslashtirib bermog‘i lozim [3].

Ma'lumki, zamnaviy ta'lif-tarbiya jarayoni o'qituvchidan muayyan metodik bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, pedagogik kompetentlik(layoqat)ni talab etadi.

O'qituvchining zamnaviy metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, shuningdek, pedagogik kompetentlik(layoqat)ning mavjudligi uning o'z pedagogik faoliyatida barkamol shaxsni voyaga yetkazishni nazarda tutishiga asos bo'ladi.

Hozirgi zamon sharoitida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o'qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Yangi pedagogik texnologiyalarni xislati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi[4]. Darhaqiqat, mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli o'tishining 80 foizi ta'lif jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liqdir.

Kelajakda ta'lif taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch sifatida innovatsion ta'lif o'qituvchi faoliyatini yangilash, ta'lif-tarbiya jarayonini maqbul qurishga, talaba yoshlarda hur fikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XXI asr – texnika va texnologiya asri. Ha, bu nom bejizga berilmadi. Atrof-muhitda sodir bo'ladigan hodisalar uni o'rganishga bo'lgan qiziqishni yanada orttirdi. Bu qiziqish ortidan ilm-fan sohasida misli ko'rilmagan kashfiyotlar paydo bo'ldi va paydo bo'lmoqda. Kundan kunga kishini hayratga soladigan yangiliklar yaratilmoqda.

Shu o'rinda, bu yangiliklar xususan, turli xil gadjetlar, qurilma-yu moslamalar inson hayotining ajralmas bo'lagiga aylanib borayotganini tan olishimiz lozim. Bugungi kunda ulardan unumli foydalanish dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lif va tarbiya olishiga bog'liq [2]. Darhaqiqat, farovon kelajak poydevori hozirda unib-o'sib kelayotgan yoshlar hisoblanadi. Shu sababli, ularning yuqori bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib voyaga yetmoqlari muhim omildir.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo'layotgan tezkor o'zgarishlar ta'lif tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lif tizimi orqali Respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta'lifda eng muhim strategik yo'nalish ta'lif muassasalarining innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha ta'lif muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lif maskanlarida innovatsion texnologiya ko'rinishida faoliyat olib borish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan.

Xususan, hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kuchaygan.

Ta’limning samaradorligini oshirish o‘z o‘rnida yoshlarning ta’lim markazida bo‘lishini va ularning mustaqil bilim olishlarini ta’minalashga xizmat qiladi. Bu yo‘lda ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallagan kadrlar talab etiladi. Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirilgan bilimlarni o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrلaydigan shaxslar kerak.

Muhimi, ta’lim jarayonida talaba, kursant asosiy bo‘g‘inga aylanadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017 -592 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. - 364 б.
3. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А. Таълимда инновацион технологиялар. Т.: 2008.